

SITOLOGIYA FANIDAN GLOSSARIY

1. Abberatsiya- xromasomalar struktura o'zgarishining bir formasi.
 2. Amitoz-hujayralarning to'g'ri bo'linish usuli.
 3. Adenin – azotli organik birikma
 4. Anafaza- hujayraning mitoz va meyoza bo'linishdagi bir faza.
 5. Aneuploidiya-hujayradagi ayrim xromasomalar miqdorining normadan ortiq ko'payishi.
 6. Androgenizatsiya- murtakning spermatozoid yadrosi xisobiga rivojlanishi.
 7. Autosomalar- jinsiy bo'lmagan xromasomalar.
 8. Axromatin- hujayra bo'linishida aktiv ishtirok etadigan mikronaychalardan hosil bo'lgan ipchalar.
 9. Bivalent- meyoza bo'linishning zigotena bosqichida konyugatsiyalanadigan ikkita gomologik xromasomalardan iborat bo'lgan juft xromasomalar.
 10. Veretino-hujayra axromatin ipchalaridan tashkil topgan duk naysimon tolalar.
 11. Gametofit-o'simliklarda gametalardan hosil bo'ladigan normadagi gaploid avlod.
 12. Gen- DNK molekulasi organik asosiga ega bo'lgan bir qismi. U organizmga qaratilgan ekstremal ta'sirlar natijasida yuz beradigan o'zgarishlarda muhim rol o'ynaydi. Uning asosida organik moddalar ma'lum tartibda o'z o'rnini topgandir.
 13. Geteroxromatin- xromasomalarning yaxshi bo'yaladigan qismi.
 14. Geteropiknoz- xromasomalar spirallangan davrida butun xromasomalar yoki uning sigmentlari bir xilda jipslashmasligi.
 15. Gomologik xromasomalar- tuzilishi jihatdan o'xshash bo'lgan va allel genlarning bir xil yig'indisini tashlaydigan xromasomalar
 16. Guanin-azotli organik birikma
 17. Diakeniz-meyozda profaza I ning oxirgi bosqichi bo'lib bunda xromatidlar kalta va yo'g'on tortadi.
 18. Diploid-somatik hujayralarda juft gomologik xromasoma yig'indisi yoki urug'lanish natijasida xromasomalar soni ikki marta ortgan
- Organizm
19. Diplotena- meyoza ning profaza 1 bosqichidagi davri
 20. Zigotena-meyoz bo'linishning profaza 1 dagi bosqichi.
 21. Interfaza-bo'lingan yosh hujayraning keyingi bo'linishga tayyorlanishi
 22. Kariogramma-idiogramma-kariotipning sxematik ifodalanishi

23. Kariotip- xromasomalar soni, shakli, yelkalarining joylashgan o'ri, sentromeraning holati yo'ldoshning bor yo'qligi, EU va geteroxromatinning taqsimlanishi va h.
24. Kariologiya-sitologiyaning hujayra yadrosi to'g'risidagi sohasi
25. Karioplazma- yadro shirasi
26. Kolxitsin- kolxikum o'simligidan olingan alkaloid modda
27. Kod- DNK molekulasi zanjiridagi nukleotidlarning navbatlangan holda joylanishi
28. Krossingover- birinchi meiotik bo'linishning profazasida konyugatsiyalanadigan gomologik xromasomalarning xromatidlari o'rtasida o'xshash qismlarining o'rin almashuvi yoki chatishuvi.
29. Leptotena- meyozi bo'linishning profaza I bosqichi davri
30. Lokus- xromasomada gen joylashgan o'ri
31. Metafaza- mitoz va meyozi o'rta stadiyasi
32. Meyozi- jinsiy hujayraning bo'linish usuli
33. Mitoz- tana hujayralarining bo'linish usuli
34. Mitondriya- hujayra organoidi
35. Miofibrill- muskul hujayrasining tolalari
36. Nukleotidlar- uch xil modda: fosfat kislota, uglevod va azotli asos molekulasi qo'shilishidan vujudga kelgan murakkab modda
37. Ovogenezi- tuxum hujayrasining rivojlanish protsessi